UO‘K 94 (575.1)

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA FARG‘ONA VODIYSI QISHLOQ MEHNATKASHLARINING FRONT ORTIDAGI MASHAQQATLI MEHNATI

R.N. Abdurasulov

Maqolada Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida Farg‘ona vodiysi qishloq xo‘jaligining urush sharoitiga moslab qayta tashkil etilishi o‘rganilgan. 1941–1942-yillarda Farg‘ona vodiysida qishloq ekinlarini yetishtirish borasida davlat rejalarini bajarishdagi qiyinchiliklar tahlil qilingan. Urushga ketgan erkaklar o‘rniga keksalar, ayollar va bolalarning mehnatga keng jalb qilinishi, yangi ekin turlarini yetishtirish va qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy muammolar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona vodiysi, paxtachilik, siyosiy bo‘limlar, kolxoz, ishlab chiqarish, qand lavlagi, sovxoz, davlat rejasi, g‘alla ekinlari, chorvachilik.*

В статье анализируется реорганизация экономики Ферганской долины в первые годы Великой Отечественной войны, влияние государственных планов по возделыванию сельскохозяйственных культур в Ферганской долине в 1941–1942 годах на развитие сельского хозяйства. Подчеркиваются широкое вовлечение пожилых людей, женщин и детей в сельскохозяйственные работы, внедрение новых сортов сельскохозяйственных культур и экономические трудности в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: *Ферганская долина, хлопководство, политические отделы, колхоз, производство, сахарная свекла, совхоз, государственный план, зерновые культуры, животноводство.*

Kirish

Sobiq ittifoq tarkibidagi barcha o‘lkalar qatori O‘zbekiston xalqi ham urush oldi va orqa tomonida yetarlicha fidoyilik ko‘rsatishgan. Bu jarayonda, ayniqsa, qishloq mehnatkashlarining xizmati katta bo‘lganini alohida e’tirof etish kerak. Urush kutilmaganda boshlanib, o‘lkadagi barcha xo‘jalik tarmoqlariga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Urush ayni qishloq xo‘jaligida ish qizg‘in paytda boshlangani va asosiy mehnat kuchlari bo‘lmish erkaklarning frontga jalb qilinishi qishloq xo‘jaligidagi ishchi kuchi masalasini o‘gir ahvolga solib qo‘ydi. Qishloqdagi barcha asosiy transport vositalari ham front oldiga jalb qilindi, urushga ketgan erkaklarning kolxozlardagi o‘rnini asosan ayollar, keksalar va yosh bolalar egallashdi. Qishloq xo‘jaligining urush ehtiyojlariga moslashishi muammosi adabiyotlar va manbalar yordamida yoritib berildi.

Material va usullar

Sovet hokimiyati tomonidan Ikkinchi jahon urushi yillarida qishloq xo‘jaligidagi murakkab jarayonlar, shu jumladan, O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligini urush ehtiyojlari uchun qayta moslashish jarayonlari faqatgina bir tomonlama o‘rganilgan. O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligidagi yutuqlar ham har doim markaz tomonidan berilgan yordam va ko‘rsatmalar evaziga erishilgan degan g‘oyani ilgari surib kelingan. Urushning dastlabki yillaridagi qiyinchiliklar va qishloq mehnatkashlarining bu urush talablariga moslashishi kabi masalalar ayrim tadqiqotlarda ma’lum darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, lekin hozirgacha to‘liqligicha maxsus holda o‘rganilmagan. Xususan, qishloqlardagi urushga ketgan erkaklar o‘rnini ayollar, o‘smir bolalar va qariyalar egallashi, qishloqlarda asosiy transport vositalarining front oldiga olinishi va ular o‘rniga o‘rta asrlardagidek ot va xashaki eshaklardan foydalanishga o‘tilishi kabi masalalar ayrim sovet tarixchilari tomonidan bir yoqlama holatda o‘rganilgan. Sovet davri tarixchilari o‘z asarlarida qishloq xo‘jaligidagi qiyinchiliklarni kamroq yoritib, asosiy urg‘uni qishloq ekinlariga, xususan, paxtachilik, donli ekinlar, bog‘dorchilik, polizchilik kabi ekinlardagi yutuqlarga e’tibor qaratishgan. O‘zbekistonning

fashizmga qarshi urushda ishtiroki, mamlakat harbiy iqtisodiyotini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi masalasini atroflicha o‘rganish hozirgacha muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu mavzular qatorida urush yillaridagi qishloq xo‘jaligi masalasi dolzarb ahamiyatga ega.

Natija va muhokama

1941-yil 22-iyunda fashistlar Germaniyasining sovet davlatiga bostirib kirishi va boshlanib ketgan urush mamlakat qishloq xo‘jaligi oldiga ham qator murakkab vazifalarni ko‘ndalang qildi. Qishloq xo‘jaligi sanoatni xomashyo bilan, aholini oziq-ovqat bilan ta’minlashdan tashqari frontni ham to‘la ta’minlashi lozim edi. Urush arafasida, 1940-yilda sovet mamlakatining jami aholisi 194,1 million kishi bo‘lib, ularning 131 millioni yoki 67,5 foizi qishloq aholisi edi. Qishloq xo‘jaligi tuzilmasida sotsialistik sektor ustuvor bo‘lib, mamlakatda 236,9 ming kolxoz va 4,2 ming sovxoz mavjud edi, kolxozlarda 18,7 million xo‘jalik uyushgan edi [1. B. 373]. Mamlakat iqtisodiyoti agrar sektorining samaradorligi juda past, kolxoz iqtisodiyoti inqiroz holatida bo‘lib, 1940–1941-yillarda shaharlardagi oziq-ovqat tanqisligi, qishloq joylardagi qiyinchiliklar buning yaqqol dalili edi. Bularning barchasi XX asrning 30-yillarida Stalin boshchiligidagi rahbariyat tomonidan amalga oshirilgan agrar siyosat natijasi edi [2. B. 74]. Boshlanib ketgan urush mamlakat dehqonchiligiga yanada og‘ir zarba berdi, urush SSSRning agrar salohiyatini o‘ta zaiflashtirib qo‘ydi. Dushman tomonidan bosib olingan hududlarda urushdan oldin mamlakat aholisining 40 foizi yashardi [3. B. 166]. Bu hududlarda jami g‘allaning 38 foizi, qand lavlagining 84 foizi yetishtirilar, yirik shoxli qoramollarning 38 foizi jamlangan edi [4. B. 42]. Urushning dastlabki davridagi ekstremal vaziyat mavjud barcha resurslarni safarbar qilishning keskin choralarini taqozo qildi. Bu hol yuqori partiya organlari va quyi partiya tashkilotlari o‘rtasidagi aloqaning zaiflashishi va hatto yo‘qolishi, partiya-davlat apparatida kuchli byurokratik tendensiyalarning tez o‘sishi va butun jamiyatda hukmronlik tamoyiliga aylanish xavfini ham yuzaga keltirdi [5. B. 197–198].

Urush boshlanishi bilan dehqonlarga zo‘ravonlik qilish, bosim o‘tkazish, og‘ir majburiyatlar yuklash kabi ma’muriy-buyruqbozlik usullari yanada kuchaytirildi. Davlatdagi butun hokimiyat Stalin rahbarligidagi Davlat Mudofaa Komiteti (GKO) qo‘lida jamlandi. VKP(b) Markaziy Komiteti amalda Davlat Mudofaa Komitetining siyosiy filialiga aylantirildi, Siyosiy byuroning apparati sovet hukumati faoliyatini to‘la o‘z nazorati ostiga oldi. Mamlakatning janubiy va g‘arbiy rayonlari dushman qo‘liga o‘tishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi texnik ta’minotining ham keskin pasayishiga olib keldi. Urushdan oldin mamlakatdagi barcha kombaynlarning 35 foizi va traktor parkining 28 foizi, shuningdek, transport vositalarining salmoqli qismi shu hududlarda joylashgan edi. Dushman tomonidan bosib olingan hudud mamlakatning butun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish qudratining 30 foiziga ega edi [6. B. 369]. Bir qancha qishloq xo‘jaligi texnikalari evakuatsiya qilishdagi qiyinchiliklar tufayli mahalliy sharoitda buzib tashlandi yoki yo‘q qilindi, ma’lum miqdordagi traktor va mashinalar Qizil armiya ixtiyoriga o‘tkazildi. 1941-yil oxiriga kelib, qishloq xo‘jaligi mashina-traktor parki urushdan oldingi darajaga nisbatan 242 ming traktor, 61 ming kombayn va 162 ming avtomobilga kamaydi. Saqlanib qolgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining quvvati urushdan oldingi darajaning deyarli 60 foiziga kamaygan edi [2. B. 415]. Sovet Ittifoqining taqqoslanadigan hududi bo‘yicha (dushman tomonidan bosib olingan hududlardan tashqari) kolxozlarda va MTSda haydov va tortish texnikalari 32 foizga, avtomashinalar soni 89 foizga kamaydi, kolxozlarda ishchi kuchi sezilarli darajada qisqardi [6. B. 7]. Mamlakatning eng muhim qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchi rayonlarining dushman tomonidan egallanishi urushning dastlabki oylaridayoq mamlakat iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligi sohasini yanada zaiflashtirib, front va front ortini oziq-ovqat va xomashyo bilan ta’minlashda katta muammolarni keltirib chiqardi. O‘ta og‘ir va noqulay sharoitda mamlakat dehqonlari qishloq xo‘jaligini harbiy izga solish, armiyani va mamlakat aholisini zarur oziq-ovqat va xomashyo bilan ta’minlashdek vazifani o‘z zimmasiga oldi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq ana shunday og‘ir, murakkab mas’uliyat mamlakatning janubiy hududi bo‘lgan O‘rta Osiyo respublikalari, xususan, O‘zbekiston mehnatkashlari zimmasiga yuklandi. Qishloq xo‘jaligini harbiy tartibga o‘tkazishning mohiyati shundan iborat ediki, uning asosiy og‘irligi mamlakatning sharqiy hududlariga, shu jumladan, frontning eng muhim qurol-yarog‘ va oziq-ovqat ishlab chiqarish bazasiga aylangan O‘zbekiston zimmasiga ham tushdi.

Dushman mamlakat g‘arbidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy manbai bo‘lgan keng hududlarni bosib olgan edi. Mamlakat temiryo‘l tarmog‘ining 41 foizi bosqinchilar qo‘liga o‘tganligi tufayli oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi xomashyosini tashish imkoniyatlari ham keskin cheklab qo‘yilgandi.

Iqtisodiyotning agrar sektorini harbiy izga solish juda qiyin va murakkab sharoitlarda olib borildi.

Urushning dastlabki oylaridanoq qishloqning moddiy-texnik bazasi, kishi resurslari keskin kamaydi. Zero, respublikadagi chaqiruv yoshidagilarning asosiy qismini qishloq aholisi tashkil qilar, 1940-yilda respublika jami aholisining 70 foizi qishloq aholisidan iborat edi. Qishloq aholisi armiyani askar bilan ta'minlashning eng ko'p sonli manbasi bo'lib, kolxoz raislari, hisobchilar, agronom, brigadirlar, haydovchi, traktorchi, mexanik, oddiy kolxozchi va sovxoz ishchilarining ko'pchiligi dastlabki kunlardanoq urushga safarbar qilindi. Bundan tashqari qishloq aholisining ma'lum bir qismi front yaqinidagi mudofaa inshootlari qurilishiga, ko'mir qazib olish va sanoatning boshqa tarmoqlaridagi turli ishlarga ham safarbar etildi. Bularning barchasi respublika kolxoz-sovxozlaridagi ishchi kuchining sezilarli darajada kamayishiga sabab bo'ldi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida resurslar tanqisligini keltirib chiqardi [6. B. 40].

Sovet davlatining sharqiy hududlari, shu jumladan, O'rta Osiyo respublikalari kolxoz xo'jaligining qaror topgan mavjud tizimini o'zgartirishga majbur bo'ldi. O'zbekistonda qishloq mehnatkashlari o'z oziq-ovqat bazalarini yaratdilar, chunki mamlakatning g'arbiy viloyatlaridan oziq-ovqat mahsulotlari kelishiga umid bog'lash imkonsiz edi. Respublikada urushgacha mutlaqo bo'lmagan qishloq xo'jaligi tarmoqlari, masalan, qand lavlagi yetishtirish yo'lga qo'yildi. Davlatga g'alla, chorvachilik mahsulotlari, sabzavotchilik, bog'dorchilik mahsulotlari yetkazib berish sezilarli darajada ko'paydi, bunday ekinlar yetishtiriladigan maydonlar kengaydi.

Qishloq xo'jaligining urushgacha mavjud moddiy-texnika bazasi va ishlab chiqarish quvvati keskin qisqardi. Kishilar bilan bir qatorda front ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi texnikasi – yuk avtomobillari, traktorlar, pritseplar, arava va boshqa vositalar ham olindi. MTSlar, kolxoz va sovxozlar o'zlarining ixtiyoridagi eng yaxshi texnikalarni urush ehtiyojlari uchun berishga majbur bo'ldi. Bular bilan birga, kolxoz va sovxozlardagi ko'pgina otlar ham front ehtiyojlari uchun olindi, vaholanki, ular qishloq xo'jaligida asosiy ish hayvonlari (yer haydash, yuk tortish va hokazo) hisoblanar edi. 1941-yilda Namangan oblastining o'zidan Qizil armiya ehtiyojlari uchun 94 ta GAZ AA-47, ZIS 5–47 avtomashinalari va 1420 ta ot yuborilgan [2. B. 6]. Urush yillarida qishloq xo'jaligi texnikalari uchun ehtiyot qismlar, yonilg'i-moylash materiallari ta'minoti ham qisqardi. Bunday zarur vositalarning taqchilligi hamda malakali traktorchi va mexaniklarning urushga yuborilishi natijasida mavjud texnika vositalarining samaradorligi ham sezilarli darajada pasaydi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash darajasi ham yildan yilga tushib bordi. Tobora ko'payib borayotgan qishloq xo'jaligi ishlari hajmini bajarish qattiq mehnat intizomiga rioya etgan holda, ot va qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishni ko'paytirish evazigagina mumkin edi.

SSSR Davlat Mudofaa Komitetining 1941-yil 4-iyuldagi qarori bilan tegishli komissarliklarga mamlakat mudofaasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan harbiy-xo'jalik rejasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Bu reja mamlakatning dushman okkupatsiyasi ostiga tushib qolishi mumkin bo'lgan hududlaridan sanoat korxonalarini sharqqa ko'chirish orqali ular imkoniyatidan samarali foydalanishga qaratilishi lozim edi [7. B. 278].

Urushning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston hukumati va barcha mahalliy partiya va sovet tashkilotlari respublika iqtisodiyotini, shu jumladan, qishloq xo'jaligini harbiy izga solish va qayta qurishga kirishdi. O'zbekiston kompartiyasi Markaziy Komitetining 1941-yil dekabrida bo'lgan V Plenumi urush davri sharoitlaridan kelib chiqib, respublikada ekin ekiladigan maydonlarni 521800 gektarga ko'paytirish (shundan 347200 gektari sug'oriladigan yerlar) to'g'risida qaror qabul qildi. Yangi yerlar hisobiga respublikada paxta xom ashyosi yetishtirishni ko'paytirish, g'alla ekinlari hosilini 15 million sentnerga yetkazish (1941-yilda respublikada yalpi g'alla hosili 5,5 million sentner bo'lgan), 70 ming gektar yerda O'zbekiston qishloq xo'jaligi uchun yangi ekin turi bo'lgan qand lavlagi yetishtirishni yo'lga qo'yish va har gektar yerdan eng kami 250 sentnerdan hosil olishni ta'minlash, chorvachilik, ipakchilik va boshqa qishloq xo'jaligi tarmoqlari samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi [8. B. 78].

Andijon oblast partiya komiteti va oblast ijroiya komiteti qishloq mehnatkashlari zimmasiga SSSR Davlat Mudofaa komitetining ko'rsatmasi bo'yicha 1941-yili davlatga 55923 sentner g'alla topshirish, shundan kolxozlar bo'yicha 37464 sentner, kolxozchilar bo'yicha 10000 sentner, unmay qolgan qarzlar hisobidan kolxozlar bo'yicha 538 va kolxozchilar bo'yicha 3099 sentner g'alla topshirish vazifasini yukladi. Shuningdek, viloyat bo'yicha 29855 sentner sholi topshirish, shu jumladan, kolxozlar bo'yicha 22312 sentner, kolxozchilar hisobidan 1000 sentner tayyorlanishi belgilandi [9. B.167].

Andijon viloyatida 1941-yilda qishloq xo'jaligining muhim sohalaridan biri bo'lgan sabzavotchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, joriy yilda 1200 tonna karam, 1390 tonna pomidor, 175 tonna bodring va 4051 tonna qovun-tarvuz yetishtirish bo'yicha zarur tadbirlar belgiladi [10. B. 45].

Farg'ona oblasti bo'yicha 1941-yilda qishloq xo'jaligidagi otlar sonini 29188 boshga, 1942-yilda esa 31295 boshga, tuyalar sonini 390 boshga yetkazish,

yirik shoxli qoramollarni 1941-yilda 2795 boshga ko‘paytirish bo‘yicha vazifa qo‘yildi [11. B. 14].

Namangan oblastida 1939-yilda 178440 tonna, 1940-yilda 188535 tonna paxta yetishtirilgan, 1941-yil uchun esa 182762 tonna majburiyat belgilangan. Respublika bo‘yicha esa 1939-yilda 1399243 tonna, 1940-yilda 1387847 tonna paxta hosili olingan, 1941-yil uchun 1469897 tonna majburiyat yuklangan [12. B. 1-2].

Farg‘ona vodiysi viloyatlari urush arafasida respublikaning asosiy paxta yetishtiruvchi hududlari hisoblanib, bu yerda paxtachilik qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘iga aylangan edi. Masalan, Andijon oblastida 1939-yilda 302298 tonna, 1940-yilda 311690 tonna paxta yetishtirilgan, 1941-yil uchun 310487 tonna majburiyat yuklatilgan. Farg‘ona oblastida 1939-yilda 230431 tonna, 1940-yilda 217761 tonna paxta yetishtirilgan, 1941-yil uchun 232731 tonna paxta majburiyati yuklatilgan. Namangan oblastida 1939-yilda 178440 tonna, 1940-yilda 188535 tonna paxta yetishtirilgan, 1941-yil uchun esa 182762 tonna majburiyat belgilangan. Respublika bo‘yicha esa 1939-yilda 1399243 tonna, 1940-yilda 1387847 tonna paxta hosili olingan, 1941-yil uchun 1469897 tonna majburiyat yuklangan [13. B. 1–2]. 1941-yil davomida Andijon oblastida 645 ta kolxoz mavjud bo‘lib, ularda 96774 xo‘jalik (oilaviy yoki yakka holda) a’zo bo‘lgan. Kolxoz a’zolarining umumiy soni 477779 kishidan iborat bo‘lib, ulardan 108083 nafarini erkaklar, 104199 nafarini ayollar, 26250 nafarini 12 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan o‘spirinlar tashkil qilgan [14. B. 9]. Oblastda 1941-yilda 30410 gektar yerda donli ekinlar, 126476 gektar yerda paxta, 1153 gektar yerda kartoshka ekilgan. Shuningdek, 1756 gektar yerda sabzavot ekinlari, 1850 gektar yerda poliz ekinlari yetishtirildi. 1941-yil yakuniga ko‘ra oblast bo‘yicha 126427 tonna paxta hosili olinib, hosildorlik gektaridan 23,2 sentnerni tashkil qildi, donli ekinlarning o‘rtacha hosildorligi 14,0 sentner bo‘ldi [15. B. 3]. Namangan oblastida 1941-yilda 520 ta kolxoz faoliyat ko‘rsatib, ularda 78518 xo‘jalik yoki 360504 kishi a’zo bo‘lgan. Kolxoz a’zolarining 88674 nafari erkaklar, 77209 nafari ayollar, 15524 nafari 12–16 yosh oralig‘idagi bolalar edi [16. B. 65]. Namangan oblastida 1941-yilda 33007 gektar yerga donli ekinlar, 81768 gektar yerga paxta, 711 gektar yerga kartoshka, 1578 gektar yerga sabzavot ekinlari, 1188 gektar yerga poliz ekinlari ekilgan. 1941-yilda paxta hosildorligi har gektar yerdan o‘rtacha 21,1 sentnerni, g‘alla ekinlari 9,6 sentnerni tashkil qildi. Oblast bo‘yicha 1941-yilda 1718289 sentner paxta hosili olindi [17. B. 66]. Farg‘ona oblastida 1941-yilda 1001 ta kolxoz bo‘lgan. Kolxozlarga 110032 ta xo‘jalik yoki 510410 kishi a’zo bo‘lgan. Kolxozchilarning 116002 nafari erkaklar, 110383 nafari ayollar, 23880 nafari esa 12 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar edi. 1941-yilda oblast bo‘yicha 24128 gektar yerda donli ekinlar, 137113 gektar yerda paxta, 1965 gektar yerda kartoshka, 2410 gektar yerda sabzavot ekinlari, 2540 gektar yerda poliz ekinlari yetishtirilgan. G‘alla ekinlarining o‘rtacha hosildorligi 12,0 sentnerni, paxta hosildorligi esa 16,0 sentnerni tashkil qildi. 1941-yili Farg‘ona oblasti kolxozlarida 136963 tonna paxta xomashyosi yetishtirildi [18. B. 74].

Farg‘ona oblasti kolxozlarida paxta hosildorligi 1941-yilda 18,2 sentnerni, Namanganda 23,1 sentner, Andijonda 25,7 sentnerni tashkil qilgan. Respublika bo‘yicha kolxozlarda paxta hosildorligi o‘rtacha 18,2 sentnerni tashkil qildi [19. B. 10]. 1941-yilda paxtachilik sovxozlarida paxta hosildorligi Andijonda 26,4 sentner, Namanganda esa 26,5 sentnerni tashkil qildi [20. B. 13]. Qishloq xo‘jaligiga, umuman, kolxoz va kolxozchilarga ma’muriy-buyruqbozlik yondashuvi qishloqda favqulodda partiya organlari – MTS va sovxozlarda siyosiy bo‘limlarning tashkil etilishida yaqqol namoyon bo‘ldi. Ularni tashkil etish to‘g‘risidagi qaror 1941-yil 17-noyabrda Stalin tomonidan imzolangan. “MTS va sovxozlar siyosiy bo‘limlarining asosiy vazifasi, – deyiladi qarorda, – MTS va sovxozlarning ishchi-xodimlari o‘rtasida, kolxozchilar o‘rtasida siyosiy ishlarni kuchaytirish, MTSlar, kolxoz va sovxozlarda qishloq xo‘jaligi ishlari rejalarining o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash uchun intizom va tartibni joriy etishni qayta tashkil etishdan iborat”. Siyosiy bo‘limlarga yuklatilgan yana bir vazifa – “inqilobiy hushyorlikni oshirish”, qatag‘on qilingan sobiq “quloqlar” va boshqa “diversiyachilar”ning “dushmanlik harakatlarini fosh etish”dan iborat edi [21. B. 202]. 1941-yilning 1-martidagi ma’lumotga ko‘ra, Farg‘ona oblastining 33 ta rayoni (bu vaqtda Andijon, Namangan oblastlari tashkil topmagan edi – *R.A.*) bo‘yicha qishloq xo‘jaligida paxta ekin uchun 290152 gektar yer haydovdan chiqarilgan va bu haydov rejaning 2,5 foizini tashkil qilgan [5. B. 49].

1941-yilning 1-may holatida Farg‘ona oblasti bo‘yicha 1002 ta kolxoz bor edi. Jumladan, Oltiariq rayonida 64 ta, Bag‘dod rayonida 108 ta, Kaganovich rayonida 113 ta, Kirov rayonida 99 ta, Qo‘qon rayonida 77 ta, Quva rayonida 70 ta, Kuybishev rayonida 61 ta, Marg‘ilon rayonida 87 ta, Molotov rayonida 116 ta, Toshloq rayonida 72 ta, Farg‘ona rayonida 69 ta, Frunze rayonida 66 ta kolxoz bo‘lgan [23. B. 17]. O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining Andijon oblasti bo‘yicha Tashkiliy komitetining 1942-yil 16-aprelda bo‘lib o‘tgan ishchi yig‘ilishida

1942-yilda oblastda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, Tashkiliy komitet “Andijon oblastida kolxozlarda ertaki kartoshka ekishning borishi to‘g‘risida” qaror chiqargan [23. B. 3–4]. Bunga ko‘ra, Andijon, Oltinko‘l, Lenin rayonlarida ertaki kartoshka ekish ishlari qoniqarsiz borayotgani ta’kidlangan. 1942-yil 10-aprel holatiga oblast bo‘yicha 300 gektar yerga ertaki kartoshka ekilgan, bu rejaning faqat 40 foizini tashkil qilgan. Shuningdek, boshqa ertaki sabzavotlar ekish rejasi 265 gektarni yoki 33 foizni tashkil qilgan, Andijon rayonidagi “Yangi dehqon”, Kaganovich nomli, “8-Mart” kolxozlari ertaki kartoshka ekish rejasini tamoman bajarmaganlar [24. B. 3]. Farg‘ona oblast ijroiya komiteti va partiya komiteti byurosining 1942-yil 3-maydagi “1942-yilda Farg‘ona oblastida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning davlat rejasi to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, oblastda qishloq xo‘jaligi ekinlari ekish bo‘yicha davlat rejasi belgilangan. Jumladan, 1942-yilda oblast kolxozlarida 226500 gektar yerda dehqonchilik qilish, shu jumladan, 14340 gektar yerda texnika ekinlari, 38800 gektar yerda chorva uchun ozuqa ekinlari, 8500 gektar yerda sabzavot va poliz ekinlari, 35800 gektar yerda g‘alla, 7000 gektar yerda takroriy ekinlar ekish, 2900 gektar maydonda qator oralariga (bog‘ va tut plantatsiyalari) turli ekinlar ekish belgilangan [25. B. 33]. 1942-yil uchun oblast bo‘yicha g‘alla ekinlaridan o‘rtacha 15,7 sentner, paxtadan 17,5 sentner, qand lavlagidan 281 sentnerdan hosil yetishtirish majburiyati belgilandi. Ayni vaqtda oblast kolxozchilari tomorqa yerlarining 600 gektariga kartoshka ekish majburiyati ham yuklatildi [26. B. 33]. O‘zSSR Oliy Soveti Tashkiliy komiteti va O‘z KP(b) MK Tashkiliy byurosining 1942-yil may oyidagi “1942-yilda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha davlat rejasi to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, 1943-yilda Andijon oblastida kuzgi ekin ekish maydonlari jami 7000 gektar qilib belgilangan. Undan 2000 gektari sug‘oriladigan maydonlarda, 1000 gektari yosh daraxtlar orasida (tut plantatsiyalari orasiga), 2000 gektari shartli sug‘oriladigan maydonlarda, 2000 gektari lalmi adirlik yerlarda yetishtirilishi belgilangan [27. B. 74].

Namangan oblast partiya faollarining 1941-yil 20-oktyabrda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishi frontdagi ahvolni muhokama qilib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni yanada ko‘paytirish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Ayni shu qarorda ekin maydonlarini 7800 gektarga kengaytirish, paxta tayyorlash rejasini esa 20-noyabrgacha bajarish vazifasi qo‘yildi [28. B. 80]. Urushning birinchi yili oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash davlat plani muvaffaqiyatli bajarilishi bilan yakunlandi. O‘zbekiston bo‘yicha 1941-yilning iyul oyi oxirlarida 1940-yilning shu davridagiga nisbatan uch barobar ko‘p g‘alla topshirildi. Andijon oblastining kolxozchilari qisqa muddat ichida 9855,7 tonna g‘alla topshirdi.

Otlarning sonini ko‘paytirish front va front orti uchun, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida ish hayvoni sifatida foydalanish uchun juda zarur edi. Shuning uchun ham Farg‘ona oblast ijroiya komiteti va oblast partiya komiteti bu ish bilan jiddiy shug‘ullanib, 1941-yilda otlar sonini 29188 boshga, 1942-yilda 31295 boshga, tuyalar sonini 390 boshga yetkazish bo‘yicha reja qabul qildi. Farg‘ona oblasti davlatga 1941-yilda 219104 tonna paxta, 187746 bosh yirik shoxli hayvonlar, shu jumladan, kolxozlar bo‘yicha 4138 bosh mol yetkazib berib, bu boradagi reja 133,9 foizga, qo‘ylar esa 181609 boshga yetkazilib, reja 117,6 foizga, shu jumladan, kolxoz sektori bo‘yicha 94814 boshga yetkazilib, reja 131 foizga, echkilar soni 44508 boshga yetkazilib, reja 124,5 foizga, jumladan, kolxozlar bo‘yicha 188894 boshga yetkazilib, reja 170,4 foizga bajarildi [29. B. 82].

Farg‘ona oblasti chorvachilik sohasida 1942-yilda ham ma’lum yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Chunonchi, 1942-yili oblastda yirik shoxli hayvonlar soni rejadagi 55000 bosh o‘rniga 56048 boshga yetdi yoki bu bo‘yicha majburiyat 101,2 foiz, qo‘y va echkilar 31000 bosh o‘rniga 37200 boshga yetkazilib, reja 117 foiz qilib bajarildi. Andijon oblast partiya komiteti 1941-yil 16-iyulda chorvachilik masalasini maxsus muhokama qilib, yil oxirigacha yirik shoxli hayvonlar sonini 97476 boshga yetkazish haqida qaror qabul qiladi. Bu qaror 1942-yil boshidayoq rejadan oshirib bajarildi. 1941-yilning 4-choragiga kelib, oblast bo‘yicha davlatga 11500 sentner go‘sht topshirildi va bu boradagi majburiyat to‘la bajarildi [29. B. 83].

1942-yili Ukrainadan Qo‘qonga ko‘chirib keltirilgan yirik qand zavodini xomashyo bilan ta’minlash maqsadida kolxozlarda lavlagi ekish rejalashtirildi. 6 ta kolxoz dalalarida 310 gektar yerga chigit, 259 gektarga lavlagi, 91 gektar maydonga oq jo‘xori va boshqa donli ekinlar ekildi. Kenjaboy Zokirov boshliq pillakorlar brigadasi har quti pilla urug‘idan 41 kilogrammdan “kumush tola” oldilar. Shuningdek, lavlagi ekilgan yerlarning har gektaridan 310 sentnerdan hosil yetishtirildi. “Madaniyat” kolxozi dehqonlari oq jo‘xorining har gektaridan 67 sentnerdan, paxta dalalaridan esa 14,5 sentnerdan hosil ko‘tardilar. Urush davrida hamma joyda bo‘lgani kabi bu kolxozlarda ham paxta hosildorligi urushdan ilgarigi davrga nisbatan birmuncha pasayib ketdi. Yetishtirilgan qand lavlagining hammasini zavodga topshirish imkoniyati bo‘lmadi. Chunki hamma joyda transport yetarli emas edi. Lavlagi yetishtirish bilan shug‘ullangan barcha brigadalarda urushning birinchi yili 250–300

tonnadan lavlagi ehtiyot qilib saqlanib qoldirildi. Hamma kolxozlar omborida 20–25 tonnadan oq jo‘xori, 5–6 tonnadan sholi va boshqa donlar saqlab qo‘yildi. Kolxozchilar shu yili frontga 5,5 tonna oq jo‘xori, 1,5 tonna guruch, 12 tonna quritilgan qand lavlagi va boshqa meva, sabzavotlar jo‘natdilar. Aholi tomonidan to‘plangan 285 ming so‘m pul ham front ixtiyoriga yuborildi.

Xulosa

Shu tariqa urush respublika, jumladan, Farg‘ona vodiysi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchi kuchlari holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Urushning birinchi yilidanoq O‘zbekistonda qishloq mehnatkashlari o‘ta og‘ir sharoitda, moddiy, mehnat va oziq-ovqat resurslarining keskin tanqisligi sharoitida mehnat qilishga majbur bo‘ldilar. Urushning dastlabki kunlaridanoq qishloq xo‘jaligidagi asosiy kuchlarning frontga va front ortidagi turli ishlarga safarbar qilinishi qishloq xo‘jaligida muammolarni keltirib chiqardi. Chunki qishloq aholisi o‘zlari bilan endilikda frontni ham oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashishi kerak edi. Mamlakatda yangi ekin turlarini yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Chorvachilikda ham qishloq aholisi anchagina jonbozliklar ko‘rsatishgan. Farg‘ona vodiysi viloyatlarida asosiy ekin sifatida paxta ekish majburiyatlari urush davrida yanada ko‘paytirildi. Bu esa qishloq mehnatkashlari oldiga yanada murakkab vazifalarni yukladi. Shunday bo‘lsa-da, Farg‘ona vodiysi viloyatlari aholisi urush yillarida o‘zlarining mashaqqatli mehnatlari bilan g‘alabaga munosib hissalarini qo‘shishgan.

Adabiyotlar:

1. Народное хозяйство СССР за 70 лет. / В кн.: Юбилейный статистический ежегодник. – Москва, 1987. – 373 с.

2. Великая Отечественная война. 1941–1945. Военно-исторические очерки. Книга первая. Суровые испытания. – Москва: Наука, 1998. – 544 с.

3. История Великой Отечественной войны Советского Союза, 1941–1945 гг. Том 2. – Москва: Наука, 1963. – 166 с.

4. *Вознесенский И.А*. Военная экономика СССР в период Отечественной войны. – Москва: Политиздат, 1947. – 42 с.

5. *Анисков В.Т*. Жертвенный подвиг деревни. – Новосибирск: СО РАН, 1993. – 246 с.

6. История социалистической экономики СССР. Том 5. / Советская экономика накануне и в период Великой отечественной войны 1938–1945 гг.

– Москва: Наука, 1978. – 369 с.

7. *Бенедиктов И*. Сила и жизненность колхозного строя // Социалистическое сельское хозяйство. – 1945. – №10. – С. 7–12.

8. Наманган вилоят давлат архиви (НВДА), 275-фонд, 1-рўйхат, 24-иш, 6-варақ.

9. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. Сборник документов за 50 лет. Том 3. – Москва: Политиздат, 1968. – 278 с.

10. Узбекистан в годы Великой Отечественной войны (1941–1945). / Отв. ред. Р.Х.Аминова и Т.Д.Джураев. – Ташкент: Фан, 1966. – 78 с.

11. Андижон вилоят давлат архиви (АВДА), 608-фонд, 1-рўйхат, 167-иш, 167-варақ.

12. Ўзбекистон Миллий архиви (Ўз МА), Р-90-фонд, 8-рўйхат, 5486-иш, 1-2-варақлар.

13. Фарғона вилоят давлат архиви (ФВДА), 8-фонд, 1-рўйхат, 245-иш, 14-варақ.

14. НВДА, 215-фонд, 1-рўйхат, 25-иш, 39-варақ

15. Ўзбекистон Миллий архиви (Ўз МА), Р-90-фонд, 8-рўйхат, 5486-иш, 1-2-варақлар.

16. Ўз МА, Р-90-фонд, 8-рўйхат, 5535-иш, 9-варақ.

17. Ўз МА, Р-90-фонд, 8-рўйхат, 5535-иш, 3-варақ.

18. Ўз МА, Р-90-фонд, 8-рўйхат, 5535-иш, 65-варақ.

19. Ўз МА, Р-90-фонд, 8-рўйхат, 5535-иш, 66-варақ.

20. Ўз МА, Р-90-фонд, 8-рўйхат, 5535-иш, 74-варақ орқаси.

21. Ўз МА, Р-90-фонд, 8-рўйхат, 5485-иш, 10-варақ.

22. Ўз МА, Р-90-фонд, 8-рўйхат, 5485-иш, 13-варақ.

23. ФВДА, 1124-фонд, 1-рўйхат, 106-иш, 49-варақ.

24. ФВДА, 1124-фонд, 1-рўйхат, 107-иш, 17-варақ.

25. АВДА, 608-фонд, 1-рўйхат, 54-иш, 3-4-варақлар.
26. АВДА, 608-фонд, 1-рўйхат, 54-иш, 3-варақ.
27. ФВДА, 1124-фонд, 1-рўйхат, 112-иш, 33-варақ.
28. АВДА, 619-фонд, 1-рўйхат, 7-иш, 74-варақ.
29. *Пўлатов И*. Буюк ғалабада Ўзбекистон ҳиссаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974. – 148 б.

REORGANIZATION OF THE FERGANA VALLEY FOR THE NEEDS OF AGRICULTURE IN 1941-1942

R.N. Abdurasulov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025.1(85). 48-55.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *Fergana Valley, cotton growing, political departments, collective farm, production, sugar beet, state farm, state plan, grain crops, livestock farming.*

During World War II, the Soviet Union underwent significant economic and social transformations to support the war effort. One of the most affected sectors was agriculture, as the Soviet government prioritized military needs over civilian economic stability. The Fergana Valley, one of the key agricultural regions in Uzbekistan, was crucial in meeting wartime demands. This period saw large-scale reorganization in the valley's agricultural system, focusing on increasing production, mobilizing labor, and overcoming resource shortages. The war brought significant disruptions to agriculture in the Fergana Valley. With a large number of able-bodied men conscripted into the Red Army, the labor force in collective farms (kolkhozes) and state farms (sovkhozes) diminished drastically. In response, women, the elderly, and children were mobilized to work in the fields. The government imposed strict agricultural production plans that required an increase in crop yields, particularly cotton and grain. Despite these efforts, the agricultural sector faced severe shortages of essential resources such as tractors, fuel, and fertilizers. Many agricultural machines were redirected to military use, forcing farmers to rely on traditional methods, including the use of horses and manual labor. The situation was further exacerbated by difficulties in transportation, which hindered the distribution of food and raw materials. To meet wartime demands, the Soviet government introduced new crop cultivation strategies. While cotton remained a priority crop, there was an increased emphasis on growing grain, sugar beets, and vegetables to ensure food security. The state implemented rigid policies to control production and distribution, requiring farmers to meet quotas under strict supervision. Additionally, political departments were established within collective farms to enforce labor discipline and ensure compliance with state directives. These measures, though necessary for wartime efficiency, placed immense pressure on local farmers, who were often forced to work long hours under harsh conditions. The reorganization of agriculture in the Fergana Valley during World War II was a complex process driven by the urgent needs of the Soviet war economy. The mobilization of women, children, and the elderly, combined with strict government control, helped sustain agricultural production despite numerous challenges. However, these efforts came at a high cost, as local farmers endured harsh conditions and economic hardships. Despite these difficulties, the contributions of the Fergana Valley played a vital role in supporting the Soviet Union's wartime food and raw material supplies.

References:

1. (1987) *Narodnoe hozyajstvo SSSR za 70 let* [The National Economy of the USSR for 70 Years]. In: Yrbilejnyj statisticheskij ezhegodnik [Anniversary Statistical Yearbook]. Moscow: Finansy i statistika.

2. (1998) *Velikaya Otechestvennaya vojna. 1941-1945.* Voenno-istoricheskie ocherki. Kniga pervaya. Surovye ispytaniya [Great Patriotic War. 1941-1945. Military-Historical Essays. Book One. Cruel Trials]. Moscow: Nauka.

3. (1963) *Istoriya Velikoj Otechestvennoj vojny Sovetskogo Soyuza, 1941–1945 gg* [History of the Great Patriotic War of the Soviet Union, 1941-1945]. Vol. 2. Moscow: Nauka.

4. Voznesenskij, I.A. (1947) *Voennaya ekonomika SSSR v period Otechestvennoj vojny* [Military Economy of the USSR during the Patriotic War]. Moscow: Politizdat.

5. Aniskov, V.T. (1993) *Zhertvennyj podvig derevni* [Sacrificial Feat of the Village]. Novosibirsk: SO RAN.

6. (19678) *Istoriya socialisticheskoj ekonomiki SSSR* [History of the Socialist Economy of the USSR]. Sovetskaya ekonomika nakanune i v period velikoj otechestvennoj vojny 1938-1945 gg. [The Soviet economy on the eve of and during the Great Patriotic War of 1938-1945] Vol. 5. Moscow: Nauka.

7. Benediktov, I. (1945) Sila i zhiznennost kolhoznogo stroya [The Strength and Vitality of the Collective Farm System]. *Socialisticheskoe sel'skoe hozyajstvo*. No10. Pp. 7-12.

8. Namangan viloyat davlat arxivi [Namangan Regional State Archive (NRSA)], Fund 275, List 1, Case 24, Sheet 6.

9. (1968) *Resheniya partii i pravitelstva po hozyajstvennym voprosam* [Party and government decisions on economic issues]. Sbornik dokumentov za 50 let [A collection of documents covering 50 years]. Vol. 3. Moscow: Politizdat.

10. Aminova, R.H., Dzhuraev, T.D. (ed.) (1966) *Uzbekistan v gody Velikoj Otechestvennoj vojny (1941-1945)* [Uzbekistan during the Great Patriotic War (1941-1945)]. Tashkent: Fan.

11. Andijan viloyat davlat arxivi [Andijan Regional State Archive (ARSA). Fund 608, List 1, List 167, Sheet 167.

12. ARSA. Fund 127, List 1, Case 100, Sheet 45.

13. Farg'ona viloyat davlat arxivi [Fergana Regional State Archive (FRSA)]. Fund 8, List 1, List 245, Sheet 14.

14. NRSA. Fund 215, List 1, Case 25, Sheet 39.

15. O'zbekiston Milliy Arxivi [National archive of Uzbekistan (NA of Uz]. Fund R-90, List 8, Case 5486, Sheets 1-2.

16. NA of Uz. Fund R-90, List 8, Case 5535, Sheet 9.

17. NA of Uz. Fund R-90, List 8, Case 5535, Sheet 3.

18. NA of Uz. Fund R-90, List 8, Case 5535, Sheet 65.

19. NA of Uz. Fund R-90, List 8, Case 5535, Sheet 66.

20. NA of Uz. Fund R-90, List 8, Case 5535, Back of page 74.

21. NA of Uz. Fund R-90, List 8, Case 5485, Sheet 10.

22. NA of Uz. Fund R-90, List 8, Case 5485, Sheet 13.

23. FRSA. Fund 1124, List 1, Case 106, Sheet 49.

24. FRSA. Fund 1124, List 1, Case 107, Sheet 17.

25. ARSA. Fund 608, List 1, Case 54, Sheets 3-4.

26. ARSA. Fund 608, List 1, Case 54, Sheet 3.

27. FRSA. Fund 1124, List 1, Case 112, Sheet 33.

28. ARSA. Fund 619, List 1, Case 7, Sheet 74.

29. Po'latov, I. (1974) *Buyuk g'alabada O'zbekiston hissasi* [Uzbekistan's Contribution to the Great Victory]. Tashkent: O'zbekiston.

Muallif haqida ma'lumot:

ABDURASULOV Rasulbek Nurmaxammatovich – Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: boburabdurasulov@gmail.com